
BUGUN, TUMAN HOKIMLIGIDA TADBIRKORLAR QABULI O'TKAZILDI

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik sub'yektlarining murojaatlarini ko'rib chiqish va muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish maqsadida Toshloq tumani hokimligi majlislar zalida Respublika ishchi guruh a'zolari hamda sektor rahbarlari ishtirokida tadbirkorlar uchun qabul o'tkazildi.

Qabulda tadbirkorlik sub'yektlari vakillari, yangi biznes loyiha va rejalar ustida izlanayotgan tashabbuskor tadbirkorlarning murojaatlari tinglandi. Tadbirkorlar murojaati yuzasidan yer ajratish, infratuzilma, eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, transport-logistika, tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan ko'plab masalalar yechimiga qaratilgan.

Unda 50 ga yaqin tadbirkorlar ishtirok etdi. 15 ta tadbirkorlikni kengaytirish hamda yangi ishchi o'rinlar yaratish uchun kredit olish va yer maydoni ajratish kabi masalalarda murojaatlar qilindi.

Qabulda har bir tadbirkorning murojaatlari Respublika ishchi guruhi a'zolari tomonidan eshitildi.

Murojaatlarning aksariyatini joyida hal etilishiga e'tibor qaratildi. Muddat talab etuvchi murojaatlar ijrosi nazoratga olinib, vakolatli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishi uchun yo'naltirildi.

2024-06-07 19:25:43